

“ DUDUQLANUVCHI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA LOGORITMIK MASHG'ULOTLARNING SAMARADORLIGI ”

Ibrohimova Dilfuzaxon

Andijon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika (logopediya) 1- bosqich magistr talabasi .

Anotatsiya: Mazkur maqolada duduqlanuvchi bolalar nutqini rivojlantirishda logoritmikaning o'рни hamda uning ahamiyati, logoritmik mashg'ulotlar duduqlanuvchi bolalar uchun foydalari , ritmik mashg'ulotlar orqali yangi zamonaviy korreksion ishlar faoliyatini yo'lga qo'yish va ularni tadbiiq etish haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, ritm , harakat, taqlit, logoritmika, signal.

Аннотация: В статье рассматриваются роль и значение логоритмики в развитии речи детей с заиканием, польза логоритмических упражнений для детей с заиканием, а также создание и внедрение новых современных коррекционных мероприятий с использованием ритмических упражнений.

Ключевые слова: Речь, ритм, движение, подражание, логоритмика, сигнал.

Abstract: This article discusses the role and importance of logorhythmics in the development of speech in children with stuttering, the benefits of logorhythmic exercises for children with stuttering, and the establishment and implementation of new modern correctional activities through rhythmic exercises.

Keywords: Speech, rhythm, movement, imitation, logorhythmics, signal.

KIRISH

Nutq - bu shaxsning eng muhim aloqa vositasidir. U bolaning kognitiv, ijtimoiy va hissiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq, ayrim bolalarda uchraydigan nutq buzilishlari, xususan, duduqlanish (logonevroz), uning muloqot qilish qobiliyatiga, maktabdagi muvaffaqiyatiga va psixo-emotsional holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Duduqlanish bolalarning nutqiy faoliyatida ritm, tezlik va ravonlikning buzilishi bilan xarakterlanadi, bu esa ularda ichki zo'riqish, uyatchanlik va o'ziga ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

Ushbu muammoning murakkabligi uni bartaraf etish uchun samarali, kompleks yondashuvlarni talab qiladi. An'anaviy logopedik usullar bilan bir qatorda, so'nggi yillarda logoritmik mashg'ulotlar duduqlanuvchi bolalar nutqini korreksiya qilishda o'zining yuqori samaradorligini ko'rsatmoqda. Logoritmika — bu nutq terapiyasining musiqiy, ritmik va harakat elementlarini o'z ichiga olgan maxsus shakli bo'lib, nutqning ritmik-intonatsion tuzilishini tiklashga, umumiy va mayda motorikani rivojlantirishga, nafas olishni to'g'rilashga hamda hissiy holatni yaxshilashga qaratilgan .

ASOSIY QISM.

Duduqlanadigan bolalar bilan logoritmik mashg'ulotlarda quyidagi mashq va o'yinlarni o'tkazish maqsadga muvofiq: Ko'rish; eshitish va ko'rish idrokining diqqat e'tiborini va xotirasini rivojlantirish uchun; ritmni xis qilishda va makonda mo'ljalga olishni rivojlantirish uchun; mtaqlidchilikni rivojlantirish uchun; ijodiy, syujetli-rolli,

harakatlanadigan o'yinlar, tashabbus, mustaqillik, faollik, iroda sifatlarini rivojlantirish uchun ijodiy etyudlar; qo'l motorikasini, barmoqlarni, panjani, umumiy motorikani rivojlantirish uchun harakatlanadigan o'yin va mashqlar qoidolari bilan; yuz mimikasi va oral praksisini rivojlantirish uchun; nutq prosodiyasini rivojlantirish uchun musiqa jo'rligida ashulali, xorovodli, dramatik o'yinlar; ijodiy qobiliyatni, tasavvur qilishni rivojlantirish uchun etyudlar; musiqiy ijodni va musiqiy xotirani rivojlantirish uchun; yakunlovchi; saxnalashtirish, ertaliklar, ko'ngil ochar tomoshalar, bayramona chiqishlar (bolalar uchun), yumor kechalari, pantomimalar, kontsertlar va boshqalar (kattalar uchun).

Duduqlanadiganlar bilan korreksion ishda logopedik ritmika vositalari logopedik ishga haraganda, nutq prosodiyasi, umumiy temp va ritmni hamda nutq harakatini me'yorga solishga imkon beradi. harakatning statik va dinamik muvofiqligini harakatlantiruvchi, musiqali-harakatli, musiqali-nutqiy, ritmik, nutqiy musiqa jo'rligisiz, harakatlantruvchi-nutqiy mashq va o'yinlar, muskullar tonusini boshharish qobiliyatini, nafas chiharishning davomiyligini, ovozning yumoshq qujumini va prosodiyaning boshqa komponentlarini tarbiyalaydi.

Duduqlanadiganing harakat doirasini me'yorga solish uning muloqotga, atrof-olamga va o'z nutqining buzilishiga bo'lgan munosabatini qayta qurishga yordam beradi. Duduqlanadiganda bu qayta qurishga psixomotorikani korreksiyalash jarayonida paydo bo'ladigan fe'li va xulqidagi ijobiy xislatlar sabab bo'ladi, chunonchi: harakatlarda dadillik, ularni boshhara olish, to'g'ri qomat, suhbatdoshini ko'rishni mo'ljallash, botirlik, muloqotda tashabbuskorlik, harakatlantiruvchi va nutqiy qiyinchiliklarni qal qilishda mustaqillik, faoliyatda faollik, nutq nuqsoniga bo'lgan munosabatni qayta qurish sababli qayotiy vaziyatlar ahamiyatida qayta yo'lga solish va boshqalar. Logopedik ritmika mashg'ulotlarini logoped ishi bilan bog'lash kerak va o'quv yili davomida logoritmika materialiga muvofiq logopedik dastur bajariladi.

Shunday qilib, tekshirish davrida logoritmika mashg'ulotlarida nutqning cheklanganligi (indamaslik tartibi, pichirlash nutqi) tutashlik, silliqlik, harakatlarning o'tishi ishlab chiqiladi. Yurishga, muvofiqlashtirishga, diqqatni, xotirani rivojlanitirishga, optik-fazoviy yo'lga solishga, motorli ko'rishni muvofiqlashtiruvchi mashqlar taklif qilinadi. Bog'lab talaffuz qilishni tarbiyalash davridan boshlab talaffuzning silliqligi va tutashligi, harakatlar tempi, ifodalilik, hayajonlilikni ishlab chiqadigan nutqli vazifalar beriladi. Duduqlanadigan o'quvchilar, o'smirlar va kattalar bilan logoritmik ishda quyidagi bo'limlarni ajratish mumkin.

Silliq harakatlar va sekin tempni tarbiyalash. Muskullar tonusini keskinlashtirish va bo'shashtirishga; diqqat va xotira hajmini tarbiyalashga; harakatlarni muvofiqlashtirish va ayni bir vaqtda bo'lishlikka; tormozlanish; avtomatlashtirishni tanlash va yengib chiqish ta'siriga mashqlar, masalan, duduqlanadiganlar aylana bo'ylab qadam tashlaydilar: «bir» sanoqiga – to'xtaydilar, «ikki» sanoqiga – orqalariga yuradilar, «uch» sanoqiga – aylanadilar va teskari tomonga yuradilar, «to'rt» sanoqiga – markaz va orqaga yuradilar. Signallar bo'lib beriladi: eshitish va ko'rish. Jamoaviylikni yaqqol ifoda etadigan oqista tempdagi mashqlar, masalan, qo'llar uchun galma galdan harakat o'ylab topadilar. O'z harakatlarini bajara turib davom etadilar, o'ng tomondagi qo'shnisining harakatlariga e'tiborini haratadilar va signal bo'yicha uning hamma harakatlarini taqlid qilib o'rganib

oladilar. Shuqullanayotganlarga dastlabki harakatlari qaytib kelmagunicha shu tarzda davom etadi. Harakat va musiqali ritm bilan nutqning bog'liqligi. Yurish bilan bog'liq sanoq; harakat bilan boqlangan sanoq yoki nutqli mashqlar. Harakatni muvofiqlashtirish bilan bog'langan sanoqli yoki nutqli mashqlar – koptokni: «yuqoriga – o'ziga», «yuqoriga – qo'shniga» so'zlari bilan irgi'tish va boshqalar. Tormozlanish bilan bog'langan sanoqli va nutqli mashqlar: qadam tashlash va chap oyoq bo'yicha sanash. Signal bo'yicha to'xtaladi va sanaladi, keyin yuriladi va sanoq tiklanadi. Avtomatlashtirishni bartaraf qilish bilan bog'langan sanoqli va nutqli mashqlar: chap oyoq bo'yicha tartib bilan sanash. Signal bo'yicha orqaga qadam tashlash va keyingi signalgacha teskari tartibda sanash. Tanlash ta'siri bilan bog'langan sanoqli va nutqli mashqlar: har qanday otni talaffuz qilib koptokni bir biriga irgi'tadilar, koptokni qabul qilib olib unga sifatni qo'shadilar, keyin aksincha. Nutq tempining mustahkamligi, nutqni harakat bilan muvofiqlashishini tekshirish uchun bu bo'lim xulosasida vazifalar beriladi. Harakat va nutqning ritm xarakteri bilan bog'liqligi. harakat va nutqda forte hamda piano ni ko'rsatish: iboralarni baland va pichirlab talaffuz qilish va baland ovozda sanash. Crescendo va diminuyendo ning nutq va harakatda kuchayadigan yoki tinchib qoladigan musiqali ritm bilan bog'liqligi: sanoq va tovushni kuchaytirish bilan asta-sekin qo'llarni yuqoriga ko'tarish va tovushni pasaytirish va teskari tartib bilan sekin-asta tushirish. Nutqning mantiqiy ma'nosi va qo'ling aynan harakati bilan bog'liq bo'lgan muayyan so'z ta'kidlanadi, ya'ni urqu: «Menga koptokni ber. Menga koptokni ber. Menga koptokni ber». Duduqlanadiganlarga kuylashni musiqa jo'rligisiz o'rgatish foydali. Bunday kuylash eshitish diqqatini rivojlantirishga, diktsiyani va tovush ovozini tozaligiga imkon beradi.

Duduqlanadiganlar avval fortepiano jo'rligida kuylaydilar (kuy ozgina chalib turiladi), so'ngra pedagog bilan va, niqoyat, mustaqil musiqa jo'rligisiz kuylaydilar. Hamma yoshdagi duduqlanadiganlar bila ishda kuydeklamatsiyadan foydalanish mumkin.

SHe'rli va prozaik matnlarni tanlashda yoshni, nutqning holatini, musiqiy qobiliyatning rivojlanishini, korreksion ishning bosqichini hisobga olgan qolda amalga oshiriladi.

Musiqa jo'rligidagi o'qish, ifodali qikoya qilish, dialog yoki xorli deklamatsiya qilish matn mazmuniga mos kelishi, syujetni, obrazni asar personajlarini ochishga yordam berishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ayupova M.Y. Logopediya. Darslik. T.: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati, 2007.
2. Ayupova M.Y., X.M. Po'latova. Logopedik ritmika. Darslik. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.
3. Volkova, G. A. (2007). Logopedicheskaya ritmika. Moskva: Vlados.
4. Selyaverstov, V. I. (2001). Zaikanie u detey: Psixopatologiya i logopedicheskoye vozdeystviye. Moskva: Prosvetitel.
5. Vygotskiy, L. S. (2005). Mыshlenie i rech. Moskva: Labirint.
6. Shirobokova, R. I. (2015). Korreksiya rechi u detey s zaikaniyem sredstvami logopedicheskoy ritmiki. Perm: PGPU nashriyoti.

7. Payenbaum, E. B. (1987). Logopedicheskaya ritmika v sisteme kompleksnogo lecheniya zaikaniya. Leningrad: Logopedik jurnallar to'plami.